

*Axrorova Ruzixon Usmanovna,  
Farg'ona davlat universiteti  
dotsenti, f.f.b.f.d., PhD*

## **ZAMONAVIY FRANSUZ TILIDA QARILIK TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK TALQINI**

**Annotatsiya.** Ushu maqolada fransuz tilidagi qarilik tushunchasining leksik-semantik talqini qisqacha tahlil qilinadi. Asosan fransuz tili lug'atlarining so'z boyligi va berilgan tartibi bo'yicha tahlil qilindi. Barcha foydalanilgan materiallar fransuz tili misolida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tuchuncha, inson, umr, davr, bolalik, yoshlik, yetuklik, keksalik, fransuz tili,

*Axrorova Ruzixon Usmanovna,  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент  
Ферганский государственный университет*

## **ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА СТАРСТЬ ВО СОВРЕМЕННОМ ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Аннотация.** В данной статье кратко проанализирована лексико-семантическая трактовка понятия старость во французском языке. В основном он анализировался на основе лексики и порядка словарей французского языка. Все использованные материалы представлены на французском языке.

**Ключевые слова:** понятие, человек, возраст, период, детство, юность, зрелость, старость, французский язык.

*Axrorova Ruzixon Usmanovna,  
Doctor of Philosophy in Sciences Philology, docent  
Fergana State University*

## **LEXICO-SEMANTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF OLD AGE IN MODERN FRENCH LANGUAGE**

**Annotation.** In this article, the lexical-semantic interpretation of the concept of old age in French was briefly analyzed. It was mainly analyzed according to the vocabulary and order of the French language dictionaries. All materials used are presented in French.

**Key words:** concept, person, age, period, childhood, youth, maturity, old age, French language.

**Kirish.** Dunyodagi mavjudlikka hos tuchunchalardan biri bu “umr”dir. Fransuz tilida inson umri 4 ta asosiy davrga bo‘linadi. Bolalik, yoshlik, yetuklik va keksalik, ya’ni qarilik davri. Inson hayotining so‘nggi davri – fransuz tili olam manzarasida *âge* (yosh) tushunchasi tarkibiga kiruvchi *vieillesse* (keksalikning) leksik-frazeologik ifodalanishini hozirgi fransuz tili lug‘atlari asosida tahlil qildik.

**Asosiy qism.** Ko‘p ma’noli “*vieillesse*” (f) ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, quyidagi ma’nolarni bildiradi: 1) qarilik – kamolotdan keyin keluvchi inson umrining so‘nggi davri; 2) keksalarga xos yosh va 3) keksa kishilar. Unga so‘zlashuv tilida qo‘llaniladigan “*vieillesse*” (f) kamsitish, xo‘rlash, masxaralash oti sinonim hisoblanib, u og‘zaki nutqda va hazil tariqasida metonimiya asosida ham qariyalarning o‘zlarini, ham ularning hayot davrini bildiradi. Qarish jarayonining o‘zi esa *vieillesse* (m) deb nomlanadi. (PR, 1997, p.2388).

“*Grand âge*” inson hayotining *yoshi ulg‘aygan, keksaygan* davrini anglatadigan so‘z birikmasidir (Bordas, 1997, p.915); “*troisième âge*” *uchinchi yosh* ya’ni yaqindagina nafaqaga chiqqan kishilar haqida (Anal, p.758); “*quatrième âge*” qarovga muhtoj insonlar, o‘zlarining avtonomligini, mustaqilligini yo‘qotgan kishilar haqida (NDS, 1994, p. 829); “*le soir de la vie*” – *hayot oqshomi* (PR 1997, p.2388); “*la fin, la terme de la vie*” – *umr nihoyasi*; “*les vieux jours*” – qarigan chog‘ (Anal, p.758); “*hiver de la vie*” – *umr qishi* (Bordas, p.915); rus tilidagi “*осень жизни*” (*umr kuzi, qarilik chog‘i*) iborasi bilan ma’no jihatdan aynan mos tushadi.

Fransuzlar “yosh davr”ining inson organizimining holatiga ko‘ra quyidagicha tasvirlaydilar: “decrepitude” (f), “vieilli” o‘zbek tilidagi o‘ta qarilik bilan bog‘liq *qartayganlik, munkillaganlik; sharti ketib parti qolganlik, bedarmonlik, bemajollik, darmonsizlik, ojizlik* ma’nosini bildiradi (PR, 1997, p.557); “caducité” (f) *quvvatsizlik, kuchni yo‘qotish, qartayganlik, munkillaganlik; sharti ketib parti qolganlik* ma’nosini bildiradi (PR, 1997, p.283); “gâtisme” (m) ham salomatlik holatiga taaluqli bo‘lib, ham g‘oyat qarilik sababli o‘ta jismoniy va aqliy bedarmonlik, bemajollik, darmonsizlik, ojizlikni anglatadi (PR, 1997, p.1003).

Keksa kishilarning sog‘ligi, tashqi ko‘rinishining yomon ahvoldaligi sababli fransuzlar ularni ko‘chma nominatsiyalar “debris” (m) pej. “un vieux debris” – *munkillab qolgan odam, sharti ketib parti qolgan kishi* (jismoniy va ma’naviy yomon holatdagi kishi haqida); “ruine” (f) pej. *munkillab qolgan odam, sharti ketib parti qolgan kishi*; “guenille” (f) oti esa bir nechta ma’noni bildiradi: *bo‘shang (lapashang) odam, latta, juldur kiyim; juldur; eski-tuski, uvada; eski ko‘ylak, janda, yirtiq-sirtiq kiyim* (PR, 1997, p.1056); “grison” (m) *fam* oti esa *soch-soqoliga oq tushgan qariyaning bo‘zargan sochining rangi bilan bog‘liq* holatni anglatadi (Bordas, 1997, p.915).

Ota-onalarni, qariyalarni shuningdek “beaux-vieux” (m, pl, pop); “vioque arg, vioc, (viocard)” (m, f, pop) *chol, kampir*; “les viocs” (m, pl, pop) *ota-onalar, keksalar, qariyalar* deb ham ishlatishadi (Bordas, 1997, p.915). So‘zlashuv tilida *qaynota* so‘zini “beau-papa” (m), “beau-père” (m) qo‘shma otlari orqali ifodalashadi (PR, 1997, p.207).

Norasmiy munosabatda “grand-père” (m) *bobo* so‘zini “bon-papa” (m, fam), “grand-papa” (m), *buva, buvajon, boboy*; qisqartma so‘z “pépé” (m, pop) *buva, buvajon, boboy*; “pépère” (m, fam) *buva, buvajon, boboy*; “père” (m, fam) *ota, otaxon, qariya, amaki*; “papi” (m, fam) *buva, buvajon, boboy* ma’nolarini bildiradi (PR 1997, p.1040). Jargonga oid nutqda qariyalarni “grands-dabs” (m, pl, arg) nomi, *buva* va *buvini, ajdodlarni* bildiradi (SRLFYa, 1988, 307-b.); “grands-

parents” (m, pl) sinonimi umum qo‘llanish xarakteriga ega (PR, 1997, p.1040). Qari kishilarni mensimasdan kinoyali tarzda Xitoydagi yoki Yaponiyadagi budda dinidagi ruhoniy nomi bilan “bonze” (m), “vieux bonze” (fam) *korchalon, ishboshi, sardor, bonza*; 2) (pop) *boboy, qariya, chol, boboy* deb atashadi (SRLFYa 1988, 307-b.).

“Bobo”ni ifodalovchi frazeologik nominatsiyalar orasidan *un vieux dur à cuivre* sodda, avom tilida qo‘llaniladigan so‘z, ibora bilan *cho‘pdek ori qari odam* (FRFS, 1997, 376-b.), “vieux barbe” so‘zlashuv tilidagi so‘z, ibora (so‘zma-so‘z: “qari soqol”) *chol, boboy, munkaygan (achigan, aynigan, aljiragan) chol, kishini zeriktiradigan, xira boboy, qariya* (DEL, 1997, p.55); “vieux crouton” (pop) *munkaygan (achigan, aynigan, aljiragan) chol* (“crouton” (m) leksemasi ham shu ma’nodda qo‘llaniladi) (SRLFYa, 1988, 195-b.); “vieux débris” ya’ni “debris” (m, fam) *munkillab qolgan odam, sharti ketib, parti qolgan kishi, qartaygan marazmatik kishi* (SRLFYa, 1988, 195-b.); “vieux baderne” (baderne f.) 1) *munkaygan (achigan, aynigan, aljiragan) chol, qari tentak*; 2) *eski befahm xodim* (ko‘pincha harbiy xizmatchilar haqida; (fam) “vieux birbe” (birbe m.) *chol, boboy, keksa (qari) odam, chol* (Bordas, 1997, p.915); “birbaillon” (m), “vieux birbaillon”, “birbon” (m, pej, pop) *keksa (qari) odam, chol*; “vieux schnock” (pop) *qari tentak, munkillab qolgan odam, sharti ketib, parti qolgan kishi, marazmatik kishi* (Bordas, 1997, p.915); “vieux jeton” (arg) keksa, aql-idroki past kishini xarakterlash uchun ishlatiladi va qarilikning qoloqligini la’natlaydi (DEL, 1997, p.449). “Xotinboz chol” haqida fransuzlar “vieux-marcheur” (fam) (ya’ni abjir), “vieux-beau” (fam) *xotinlarni shaydo qiluvchi (ofatijon) qariya, xotinboz* (SRLFYa, 1988, 60-b.); *kiyimi, nozik didi bilan havasini keltirishga urinuvchi keksa kishi* (DEL, 1998, p.65), “roquintin” (m, fam) *o‘zining yoshiga qaraganda yoshroq ko‘rinishga intiluvchi kulgili qariya* (PR, 1997, p.1999) deb gapiradilar.

Og‘zaki nutqda “barbon” (m, pej), “vieux barbon” *chol, boboy*, masxaralash yoki haqoratli ta’sirchanlik ma’nosidagi *munkaygan (achigan, aynigan, aljiragan) chol* (FRFS, 101-b.); “vieux barbe” (fam) *keksa (qari) odam, chol, eskicha*

(eskiliklarga amal qiluvchi) odam, mutaassib, qari-quri odamlar, qari-qartanglar (SRLFYa, 1988, 53-b.); “vieille peau” (fam) agar soʻzma-soʻz tarjima qilinsa eski teri maʼnosini anglatadi, murojaatda *chol*, *boboy*, *otaxon* tarzida qoʻllaniladi (SRLFYa, 1988, 434-b.). “Vieux de la vieille” frazeologizmi – (fam), *tajribali kishi*, *koʻpni koʻrgan*, *pixini yorgan kishi*, ambivalent, yaʼni ikki bir-biriga qarama-qarshi baho berish bilan ajralib turadi.

Agar biz hayvonot dunyosiga oid keksalikni ifodalaydigan soʻzlarni koʻrib chiqadigan boʻlsak, *keksa bugʻu*: “un vieux cerf; un vieux dix-cors” *muguzining oʻnta shohobchalari bor qari bugʻu*; *qari toʻngʻiz* “un vieux sanglier solitaire” (pop) (Bordas, 1997, p.915) va *qari krot* (er ostida yashaydigan bir turli sutemizuvchi hayvon, toʻgʻrirogʻi krotning urgʻochisi), “vieille taupe” (pop, pej) *keksa ayol*, *qari jodugar*, *qari alvasti*, *jodugar xotin*, *yalmogʻiz*, *alvasti*; *manjalaqi*, *shallaqi* (DEL, 1998, p.744) maʼnolari birlashadi.

Fransuzlar soʻzlashuv tilida katta yoshdagi ayolni “grand-mère” (f), “mère” (f, pop), *ona*, *onajon*, *onaxon* “grand-maman” (f), “bonne-maman” (f) deb ataydilar, “mémé” (e), “mémère” *buvijon* soʻzi sinonimdir (birinchisi ikkinchi nomning qisqartirilganidir), buning ustiga ikkala bir oʻzakli soʻzlar katta yoshdagi xotinga yoki buviga tegishlidir, murojaatda rus tilidagi ogʻzaki “mamasha” shakliga ekvivalentlidir: “mémé” (e), “mémère” (f): 1) fam katta yoshdagi toʻla (semiz) ayol, erli dehqon xotin, qishloqi xotin, juvon, xola; 2) fam keksa xotin, kampir, buvijon; 3) fam murojaatda onaxon, onajon (SRLFYa, 1988, 372-b.).

Ogʻzaki nutqda *keksa xotin*, *kampir* soʻzini shuningdek “mammie” (f) va uning varianti “mamie” (f, fam) *keksa xotin*, *kampir*, *erli dehqon xotin*, *qishloqi xotin*, *juvon*, *buvijon* otlari ham ifodalaydilar (SRLFYa, 1988, 356-b.). “Belle-mère” (f), “belle-maman” (f, fam) otlari ogʻzaki nutqda *qaynonani* ifodalaydi (PR 1997, p.210). “Tarderie” (f) leksemasi asosan jargonda ishlatilib, *xunuk* yoki *soʻligan*, *qarib qolgan ayolni* ifodalaydi (SRLFYa, 1988, 575-b.).

Ogʻzaki nutqda “vieille peau” (fam) frazeologik birlik *qari jodugar*, *qari alvastini* bildiradi; *chiroyli*, *goʻzal*, *boshqalardan ajralib turadigan*, *oʻzgacha*,

*dilrabo, yoqimli, xushro‘y*” ma’nolaridagi hamda *qari jodugar, qari alvasti, jodugar xotin, yalmog‘iz, alvastini ifodalovchi “chouette”* (fam) so‘zlashuv sifati asosida hosil qilingan “*vieille chouette*” turg‘un oboroti unga yaqin sinonim sifatida ishlatiladi (SRLFYa, 1988, 142-b.).

**Xulosa.** Shunday qilib, *vieillesse (keksalik)* tushunchasi inson hayotining so‘nggi davridir. *Vieillesse (keksalik)*ni fransuzlar erkaklarning *soqoli, qari teri, jodugar kampir, alvastidagi juda xunuk tashqi ko‘rinish, xarobalar, vayronalar, egallangan tajriba, sharq kohinlari (bonza), marazm (kuch-quvvatdan qolish) (gaga), bedarmonlik, bemajollik, darmonsizlik, charchaganlik, toliqqanlik, kuch yo‘qotish, kasalliklar (malade), hayotning oxiri, o‘limning yaqinligi* bilan assotsiatsiyalashtiradilar. Hayvonot olamida keksa kishilarni *bug‘u, to‘ng‘iz, krot* ifodalaydi. Bu yosh davrini fransuzlarda *qish* bilan (*hiver de la vie*) va zavol bilan (*déclin*) assotsiyatsiyani uyg‘otadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Словарь разговорной лексики французского языка (на материале современной художественной литературы и прессы): около 9 тыс. слов. – 2-е изд., стер. – М.: Русский язык, 1988. – 640 с. (СРЛФЯ).
2. Французско-русский фразеологический словарь / под ред. Рецкера Я.И. – М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1963. – 1112 с. (ФРФС).
3. Dictionnaire Bordas des synonymes, analogies, antonymes / par Roger Boussinot. – Paris: Bordas, 1997, – 930 p. (Bordas)/
4. Dictionnaire des expressions et locutions / par Alain Rei et Sophie Chantreau. – Paris: Robert, 1998. – 888 p. (DEL).
5. Genouvrier E., Désirat C., Hordé T. Nouveau dictionnaire des synonymes. – Paris: Larousse, 1994. – 741 p. (NDS).
6. Le Nouveau Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française // texte remanié et amplifié sous la direction de Josette Rey-Debove et Alain Rey. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 1997. – 2552 p. (PR).

7. Nouveau dictionnaire analogique / sous la direction de Georges Niobey. – Paris: Larousse, 1989. – 856 p. (anal).